MATEMATIKA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AXAMIYATI

Turdiyev Alisher Pardaboy o‘g‘li, Turaqulov Yashnar Sirojiddin o‘g‘li –
Guliston davlat pedagogika instituti magistrlari

Fan va texnikaning yangi yutuqlaridan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, o‘quvchilarga Davlat ta’lim standartlarida talab qilinganidek ta’lim-tarbiya berishda kompyuter texnologiyalarinig imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uchun o‘quv jarayonini tashkil etishning metodlarini takomillashtirishni talab etadi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonining raxbari va boshqaruvchisi bo‘lib, axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o‘qituvchining o‘zi kabi kompyuter yangi, kuchli, mexnat samaradorligini oshiruvchi texnika vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Matematika o‘qitishning samaradorligini oshirishning yo‘llaridan biri ta’limda axborot texnologiyalaridan o‘rinli foydalanishdir. Undan,

- ✓ o‘tilgan materiallarni takrorlashda;
- ✓ yangi materialni bayon qilishda;
- ✓ mustaxkamlashda;
- ✓ mustaqil ishlarda;
- ✓ og‘zaki mashqlar o‘tkazishda;
- ✓ uy vazifalari berish va uning mazmunini tushuntirishda yoki ularning qanday bajarilganligini tekshirish va tahlil qilishda samarali foydalanish mumkin.

O‘tilayotgan mavzuni programmalashtirilgan holdami yoki slaydlar orqali o‘quvchilarga taqdim qilganda, mavzu bitta slaydga yoki kompyuterning monitoriga joy bo‘ladigan darajada kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib berilishi maqsadga muvofiq. Chunki o‘quvchi uzundan uzoq mavzuni shunchaki passiv o‘qib chiqmasdan, xar bir qiska bo‘laklardan so‘ng, o‘quvchini o‘ylantiradigan savol va topshiriqlar berilishi lozim. Bu topshiriqlarni o‘quvchi mustaqil xolda bajaradi. Topshiriqlarning qanday bajarilganligini o‘qituvchi o‘zining kompyuteri orqali kuzatishi mumkin.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning o‘zlashtirishini bunday nazorat qilish va baxolash, o‘quvchilarga “qoniqarsiz” baxoga nisbatan salbiy psixologik ta’sirning kamayishiga, ularda fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishga xamda mustaqil ishlashga ishtiyoq uyg‘onadi.

Kompyuter faqat o‘quvchiga emas balki olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilishda o‘qituvchiga xam katta yordam beradi. Sinfning asosiy qismi kompyuter bilan band bo‘lganida, o‘qituvchi bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash, qo‘shimcha savollarga javob berish yoki yangi murakkabroq masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, ortiqcha kuch sarflamasdan o‘qituvchining mexnat samaradorligi oshadi.

Iqtidorli, o‘z soxasi bo‘yicha yuqori darajada bilimga ega bo‘lgan yoshlar, Uzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining intellektual saloxiyatini xamda uni jaxon xamjamiyatidan munosib o‘rin egallashini taminlovchi omil va millatimizning ziynati xisoblanadi. Shuning uchun xam umumiy o‘rta ta'lim maktablarida uzluksiz ta'limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslagan davlat ta'lim standartlari joriy qilindi.

Shu munosabat bilan o‘quv mashg‘ulotlarida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish, o‘qitishning samarali vositalaridan biri xisoblanadi. Kompyuter texnologiyalari yordamida amaliy, xayotiy masalalarni yechishga ko‘prok e'tibor berish, o‘quvchilar bilimini mustaxkamlashga, o‘rganilayotgan qonun-qoidalarning xayotiy axamiyatini tushunib yetishga yordam beradi. Matematika fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy talim texnologiyalari, internet ma'lumotlaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchining mustaqil fikrlashga, erkin va ijodiy faoliyat olib borishida o‘quvchilar bilimini oshirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari yordamida o‘tiladigan mavzularni amaliy, ko‘rgazmali va jonli va tushunarli bayon qilish mumkin.

Jumladan, “Funksiyalar” bulimlarini o‘rganishda, chiziqli va kvadrat funktsiyalarning farqini animatsiyali slaydlar yordamida ko‘rgazmali ko‘rsatish mumkin. Funksiyalarning grafiklarini kompyuterda yasash orqali ularning xossalarini o‘rganish, o‘quvchilar tomonidan mavzularning puxta o‘zlashtirilishida kutilgan natijani beradi. “Trigonometriya elementlari” bobidan “Nuqtani kordinatalar boshi atrofida burish” mavzusini o‘tishda bazi burchaklarni burishning radian va gradus o‘lchovlari jadvalini, birlik aylananing nuqtalarini kordinatalar boshi atrofida burishdan foydalanib 180^0 dan katta burchaklarni, shuningdek manfiy burchaklarini xam qarashda kompyuterdan foydalanish, o‘tilayotgan mavzularning samarali o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin bayon qila olishga o‘rgatib, ijodkorligi, fanga bo‘lgan qiziqishi, izlanuvchanligi va kuzatuvchanligini oshiradi.